

## Boshlang'ich sinf o'quvchilari qobiliyatlarini rivojlantirishda qiziqarli matematikadan foydalanishning maqsad va vazifalari

**Jo`lanov Doniyor Qulmurodovich**

**Navoiy davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi**

**Qulmurodova Sevinch Doniyor qizi**

**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, iqtisod yo'nalishi 1-kurs talabasi**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatlarini faollashtirishda qiziqarli matematika fanining ahamiyati to'g'risida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** matematik ta'lim, matematik bilim, ijodiy faoliyat, matematik qobiliyat, texnologiya, o'quvchi, axborot, ko'nikma, malaka

### **Аннотация**

В данной статье обсуждается важность использования математики для стимулирования мыслительных навыков учащихся начальной школы.

**Ключевые слова:** математическое образование, математические знания, творческая деятельность, математические способности, технология, ученик, информация, умения, компетенции

### **Annotation**

This article discusses the importance of interesting mathematics in activating the thinking skills of primary school students.

**Keywords:** mathematical education, mathematical knowledge, creative activity, mathematical abilities, technology, student, information, skills, competence

Respublikamizda Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi, yoshlar ta'lim – tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora – tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o'rta ta'limda qiziqarli masalalar yechish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan o'quv dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratildi.



O‘quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg‘ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Psixologlarning aniqlashicha bolalar o‘qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma’lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o‘zlari mulohaza yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o‘zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki, o‘quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko‘rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko‘plab o‘quv materiallarini hayolidan o‘tkazadi. O‘xshash hodisalarni taqqoslaydi. O‘zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O‘qituvchilarning tayyor holda bergan ma’lumotida esa o‘quvchi fikrlash faoliyati to‘la ishga kirishmasdan to‘g‘ri javobni o‘zlashtirib oladi. O‘xshash hodisalarga duch kelishi bilan o‘qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta’lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan materiallar ancha murakkab bo‘lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

Bugungi Davlat ta’lim standarti va ta’lim tizimi o‘qituvchilar oldiga o‘ta mas’uliyatli vazifalar yuklamoqda. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi matematika darslarida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtirish jarayonida unga ijodiy yondashishi, mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur. Mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini, o‘zida hosil qiladigan ko‘nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o‘z navbatida o‘quvchining mashg‘ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o‘quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqarli matematika fanini muvaffaqiyatli o‘rganishida ta’lim qaysi metodlar va vositalar bilan olib borilishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Tajribaning ko‘rsatishicha amaldagi dasturda va darsliklarda asos qilib olingan g‘oyalar, qiziqarli matematikani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini uyg‘otish asosida emas, balki eskicha, ya’ni o‘qituvchining hatto juda faol faoliyatida bo‘lsa ham, lekin o‘quvchilarning passiv faoliyatida olib boriladigan bo‘lsa, o‘quvchilar tomonidan kerakli chuqurlikda o‘zlashtirilmasligini ko‘rsatmoqda.



Matematik ta'limni jadallashtirishning juda muhim vositalaridan biri turli matematik masalalarni yechish va mashqlarni bajarish jarayonida maktab o'quvchilarining izlanish faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarishdan iborat. Matematikani o'qitish jarayonida masalalarni yechishda matematik ta'limning asosiy maqsadlaridan biri- matematika dasturida nazarda tutilgan va matematika darsliklarida aks etgan matematik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni amalga oshirish bilan bir qatorda maktab o'quvchilarida ijodiy faollikni eng tabiiy ravishda shakllantirishi mumkinligi ham muhim.

Darhaqiqat matematika darslarida qiziqarli masalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida shunday masalalardan ba'zilarini keltiramiz.

### 1. Uch qishloq.

Bir mamlakatda Rostgo'ylar, yolg'onchilar hamda rostgo'y va yolg'onchilar aralash yashaydigan aralash qishloqlari bor ekan. Mos ravishda birinchi qishloqda faqat rostgo'ylar, ikkinchi qishloqda faqat yolg'onchilar, uchunchi qishloqda esa har ikki toifa aralashib istiqomat qilishar ekan. To'satdan o't o'chirish idorasiga qo'ng'iroq bo'libdi.

-Bizning qishloqqa o't ketdi?

-Siz qayerda yashaysiz?

-“Aralash qishloqda”.

**Savol:** O't o'chiruvchilar qaysi qishloqda yashaydi?

### 2. Qirollikdagi hayvonot olami.

Qadim zamonlarda bir qirollikda hayvonot bog'i bo'lgan ekan. Bitta xonada har xil hayvon bo'lmasligi kerar. Buni qanday joylashtirish mumkin? Tepada o'tirgan uchta soqchilar o'ng tomonga qaraganda ham chap tomonga qaraganda ham bir xil sondagi hayvonlarni ko'rishi kerak.

### 3. Matematik necha yoshda.

Bir kuni ikki matematik uchrashib qolibdi. Hol ahvol so'rashgach birinchi matematik do'stidan so'radi:

- Hozir necha yoshdasiz?

Ikkinchi matematik javob berdi:

-Men tug'ilganimda otam 25 yoshda edilar, hozir esa otam va mening yoshimizni qo'shsak 89 bo'ladi.

**Savol:** Matematik necha yoshda?



#### **4. Zinapoyalar farqi qancha.**

Uyning 9-qavatiga chiqadigan zinapoya shu uyning 3-qavatiga chiqadiga zinopoyadan necha marta ko'p?

#### **5. Bozorda.**

Qassob 1000 000 so'm bilan bozorga tushdi. U roppa-rosa 100 ta hayvon sotib olishi kerak. Sotuvda sigir, g'oz va tovuq bor. Sigir 150 000 so'm, g'oz 10 000 so'm, tovuq esa 2500 so'm turadi. U kamida har bir hayvondan bittadan olishi va barcha pulni ishlatishi shart. Qassob nimalarni sotib olgan?

#### **6.Narx.**

Mahsulot narxi avval 50% ga oshirilib so,ng yana 50% ga kamaytirsak, narx qanday o,,zgaradi?

#### **7.Gurux va talabalar.**

Guruxda 10 ta talaba o'qiydi. Ularning har biri barcha talabalar bilan qo'l berib ko'rishsa, qo'l berib ko'rishishlar soni nechta bo'ladi?

#### **8.Foiz.**

10ing 5%i kattami yoki 5 ning 10%i mi?

#### **9.Hovuzni to'ldirish.**

Hovuzni 2 ta quvur orqali suv bilan to'ldirish kerak. Agar birinchi quvurning o'zi 5 minutda to'ldirsa, ikkinchi quvurning o'zi esa 10 minutda to'ldirsa, ikkala quvur birgalikda shu hovuzni necha minutda to'ldiradi?

#### **10. Eynshteyn topishmog'i.**

Bir shaharda beshta uy mavjud. Har uyning rangi, uy egalarining millati, ichadigan ichimligi, boqadigan uy hayvoni, chekadigan sigareti har xil. Bizda ma'lum bo'lgan ma'lumotlar quyidagilar:

1. Ingliz qizil uyda yashaydi.
2. Shved kuchuk boqadi.
3. Daniyalik choy ichadi.
4. Yashil uy oq uyning chap tomonida joylashgan va .....
5. .... uning egasi kofe ichadi.
6. Pall Mall chekuvchi qush boqadi.
7. O,,rtadagi uyda yashovchi sut ichadi.
8. Sariq uy egasi Dunhill chekadi
9. Norvegiyalik birinchi uyda yashaydi.
10. Marlboro chekuvchi mushuk egasini yonida yashaydi.



11. Ot egasi Dunhill chekuvchining yonida yashaydi.
12. Winfield chekuvchi pivo ichadi.
13. Norvegiyalikning uyi - ko,,k uyning yonida.
14. Nemis Rothmans chekadi.
15. Marlboro chekuvchi suv ichadiganning yonida yashaydi.

**Савол:** kim baliq boqadi.

### 11. Nim hazil.

a) Matematik non do'koniga oltita non olishga kiribdi-yu lekin olti so'zi esidan chiqib ketibdi: qanday aytish mumkin?

- Menga yettita non berib, bittasini qaytib oling.

Variant:

- Menga beshtadan ko,,p va yettitadan kam non bering!

b) Matematikdan to'rtda oyoqli stol uchun muvozanat shartlarini hisoblashni so'rashsa, u bu masalani tezda bitta oyoqli va cheksiz ko'p oyoqli stol uchun yechib keladi. Xayotining qolgan qismini oyoqlar soni ixtiyoriy bo'lgan hol uchun yechim topishga sarflaydi.

### 12. Mo'jizalar.

Uch xonali son o'ylang. Bu sonning yoniga yana bir marta shu sonni yozib, olti xonali son xosil qiling. Bu sonni avval 7ga, so'ng 11 ga va nihoyat 13 ga bo'ling. Hamma vaqt natija o'ylangan songa teng bo'ladi.

Misollar:

$$((5+10) \times 5 + 3) \times 2 =$$

$$((7+10) \times 5 + 3) \times 2 =$$

$$((6+10) \times 5 + 3) \times 2 =$$

Qiziqarli masalalar yechishda bolalar charchashgan paytda qiziqarli matematik o'yinlarni o'ynash tavsiya etiladi. Qiziqarli o'yinlarga namunalari keltiramiz.

1. “Xo'p” o'yini.

Matematika faniga oid juda ko'p o'yinlar mavjud. Shu o'yinlardan biri va qiziqarlisi “Xo'p” o'yinidir. Bu o'yin quyidagicha o'ynaladi:

Bu o'yinda ikki o'yinchidan tortib istalgancha o'yinchi ishtirok etishi mumkin. O'yinni boshqaruvchi qatnashchilarga shartni tushuntiradi. Bunda 1 dan boshlab natural sonlarni sanash lozim va bunda har 3 ga karrali son kelganda bu sonni aytmay “Xo'p” deyish kerak. Agar qatnashchi 3 ga karrali sonni aytib qo'ysa yoki to'xtab

qolsa u yutqazadi va o'yinni tark etadi. Qolgan o'yinchilar o'yinni yana kelgan sonidan boshlab davom ettiradi. O'yin bitta qatnashchi qolguncha davom etadi va u g'olib sanaladi.

Masalan: **1,2,xo'p,4,5, xo'p,7,8, xo'p,10,11, xo'p,13,14, xo'p,16, ...**

2. “**Matematik atamalar**” o'yini.

Bu o'yinda ham bir necha kishi ishtirok etishi mumkin. Bu o'yinda qatnashchilar bir qator bo'lib turishadi va navbat bilan har bir qatnashchi matematika faniga oid atamalarni aytishadi. Bunda bir qatnashchi aytgan atamani boshqa qatnashchi aytib qo'ysa, u o'yinni tark etadi. Agar qatnashchi atama bilmay 5 soniya to'xtab qolsa ham u o'yinni tark etadi. O'yin bitta g'olib qolguncha davom etadi.

**Masalan:** Son, kesma, natural son, modul, uzunlik, qo'shish, ayirish, bo'lish, ko'paytirish, parabola, to'g'ri chiziq, uchburchak, to'rtburchak, ...

**1-masala.** Ikki do'st elektropoyezdning 5- vagonida sayohatga chiqishni kelishib oldilar. Ulardan biri boshidan boshlab hisoblaganda 5-vagonga, ikkinchisi oxiridan boshlab hisoblaganda 5- vagonga joylashdi. Agar poyezd 9 ta vagonidan iborat bo'lsa, ular sayohatga bir vagonida ketishganmi?

**Javob:** Ha ular aynan 5-vagonda birga ketishgan. Chunki boshidan boshlab sanalgan vaqtda 1,2,3,4,5 va oxiridan boshlab sanalgan vaqtda ham 9,8,7,6,5 har ikki holatda ham 5- vagonga to'g'ri kelmoqda. Bu yerda oxiridan boshlab sanalgan holatni oddiy arifmetik usulda ishlaydigan bo'lsak,  $9-5=4$  kabi noto'g'ri yechimga kelib qolamiz. Shuning uchun sanash eng to'g'ri yo'l hisoblanadi.

**2-masala.** Elektropoyezd 8 ta vagonidan iborat. Nodira boshidan boshlab hisoblaganda 4 - vagonida, Sarvar esa oxiridan boshlab hisoblaganda 4 - vagonida ketmoqda. Sarvar va Nodira bitta vagonidami?

Bu masalani ham huddi yuqoridagi singari sanash usuli bilan hal qilish to'g'ri yo'l hisoblanadi. Arifmetik yo'l bilan ishlaydigan bo'lsak,  $8-4=4$  bo'lib, Sarvar ham 4- vagonidagi kelib chiqadi, bu esa noto'g'ri javob hisoblanadi.

**3-masala.** Sardorning tug'ilgan kuniga oyisi 4 ta ertak va she'riy kitoblarni sovg'a qildi. Ertak kitoblar she'riy kitoblardan ko'pligi ma'lum bo'lsa, Sardorda qanchadan ertak va she'riy kitoblar bor?

Bu masala ko'rinishidan bir nechta noma'lumli masalani ifodalasada, shartdagi 4 soni masala yechimini bir qiymatli aniqlaydi va o'quvchi yechim 3 ta ertak kitob hamda 1 ta she'riy kitob ekanligini payqaydi.

**4-masala.** Sonlar orasiga “+” yoki “-” ishoralarini qo'yib, tenglikni to'g'ri



tenglikka aylantiring.

a)  $2 * 3 * 1 = 4$ ; b)  $2 * 3 * 1 = 6$ ; c)  $6 * 2 * 3 = 1$ ; d)  $8 * 1 * 4 = 5$ ;

Bunday turdagi misollarda o‘quvchilarning kombinatorik fikrlashlari ildiz ota boshlaydi. Ishoralarni o‘rnini almashtirib ko‘radi va kerakli misolni tuzib olib uni yechimini mustaqil hal qiladi.

**5-masala.** Ikki sonning yig‘indisi 1877 ga teng. Agar birinchi sonni 5 marta, ikkinchi sonni 2 marta orttirib, yig‘indi hisoblansa, bu yig‘indi 5401 ga teng bo‘ladi.

**Yechilishi.** 1-chi son –  $x$  ga, 2-chi son esa –  $(1877-x)$  ga teng. Bu shartlardan foydalanib quyidagi tenglamani hosil qilamiz.

$$5 \cdot x + 2 \cdot (1877 - x) = 5401, 5 \cdot x + 3754 - 2 \cdot x = 5401$$

$$3x = 5401 - 3754, 3x = 1647, x = 1647 : 3, x = 549. 1877 - 549 = 1328.$$

Bundan ko‘rinadiki 1-chi son 549 ga, 2-chi son 1328 ga teng bo‘ladi.

**Javob.** Berilgan sonlardan birinchisi 549 ga, ikkinchisi esa 1328 ga teng ekan.

**6-masala.** Ikkita to‘pda 40 ta daftar bor. Agar birinchi to‘pdan 2 ta daftar olib, ikkinchisiga qo‘shilsa, u holda birinchi to‘pda ikkinchisiga qaraganda 3 marta ko‘p daftar bo‘ladi. Har bir to‘pda qanchadan daftar bor edi?

**Yechilishi.** 1-chi to‘pda –  $x$  ta, 2-chi to‘pda esa –  $(40-x)$  ta daftar bor bo‘lsa, tenglamamiz quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

$$x - 2 = 3 \cdot ((40 - x) + 2), x - 2 = 3 \cdot (42 - x)$$

$$x - 2 = 126 - 3x, 3x + x = 126 + 2, 4x = 128, x = 128 : 4, x = 32. 40 - 32 = 8.$$

Bundan ko‘rinadiki 1-chi to‘pda 32 ta, 2-chi to‘pda esa 8 ta daftar bor ekan.

**Javob.** Dastlab birinchi to‘pda 32 ta, ikkinchi to‘pda 8 ta daftar bo‘lgan.

**7-masala.** Ikkixonali sonning raqamli yig‘indisi 11 ga teng. Agar bu songa 45 soni qo‘shilsa, berilgan son raqamlarining o‘rinlarini almashtirib yozishdan hosil bo‘lgan son chiqadi. Berilgan sonni toping.

**Yechilishi.** Dastlab bizga berilgan ikki xonali sonning birlar xonasidagi raqami –  $x$  ga, o‘nlar xonasidagi raqami –  $(11-x)$  ga teng bo‘lsa,  $\overline{ab} = 10 \cdot a + b$  dan foydalangan holatda quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$10 \cdot (11 - x) + x + 45 = 10 \cdot x + (11 - x), 110 - 10x + x + 45 = 10x + 11 - x,$$

$$155 - 9x = 9x + 11, 9x + 9x = 155 - 11, 18x = 144, x = 144 : 18, x = 8. 11 - 8 = 3.$$

Bundan ko‘rinadiki bizga berilgan ikki xonali sonning birlar xonasidagi raqami 8 ga, o‘nlar xonasidagi raqami 3 ga teng bo‘ladi.

**Javob.** Dastlab bizga berilgan ikki xonali son 38 ga teng ekan.



**8-masala.** Madina bilan Akmal bittadan natural son o'yladi. Bu sonlar qo'shilsa, 1345 hosil bo'ladi. Agar Madina o'zi o'ylagan sonning oxiriga 3 raqamini qo'shib yozsa, Akmal esa o'zi o'ylagan sonning oxiridan 2 raqamini o'chirib tashlasa, hosil bo'lgan sonlar bir xil bo'ladi. O'ylangan sonlarni toping.

**Yechilishi.** Madina o'ylagan son ikki xonalli, Akmal o'ylagan son to'rt xonalidir. Agar ikkalasi o'ylagan sonning yig'indisi 1345 ga teng bo'lsa, Akmal o'ylagan to'rt sonning birlar xonasidagi raqam 2 ga, o'nlar xonasidagi raqam 3 ga va minglar xonasidagi raqam esa 1 ga teng bo'ladi. Agar Akmal o'ylagan sonning oxirgi raqami ya'ni 2 raqami o'chirilsa va Madina o'ylagan sonning oxiriga 3 raqami qo'shib yozilganda teng bo'lsa, Akmal o'ylagan sonning minglar xonasidagi raqam bilan Madina o'ylagan sonning o'nlar xonasidagi raqam, Akmal o'ylagan sonning yuzlar xonasidagi raqam bilan Madina o'ylagan sonning birlar xonasidagi raqam teng ekanligi kelib chiqadi. Bundan ko'rinadiki Akmal o'ylagan son 1332 ga, Madina o'ylagan son 13 ga teng bo'ladi.

**Javob.** Akmal o'ylagan son 1332 ga, Madina o'ylagan son esa 13 ga teng ekan.

**9-masala.** “Makktabdan kelgach yeysizlar” deb ona 3 nafar o'g'lga laganda shaftoli qoldirdi. Murod maktabdan eng avval keldi va shaftolilarning uchdan birini olib xonadan chiqib ketdi. So'ngra Umid keldi, u ham lagandagi shaftolilarning uchdan birini olib o'z xonasiga ketdi. Keyin Maqsud keldi va lagandagi shaftolilarning uchtadan birini oldi. Agar Maqsud 4 dona shaftoli olgan bo'lsa, ona laganda nechta shaftoli qoldirgan bo'ladi?

**Yechilishi.** Ona bolalari uchun qoldirgan shaftolilar sonini –  $x$  ta deb olsak, u holda Murod olgan shaftolilar soni -  $\frac{x}{3}$  taga, qolgan shaftolilar soni -  $(x - \frac{x}{3}) = \frac{2x}{3}$  taga teng bo'ladi. Umid olgan shaftolilar soni -  $\frac{1}{3} \cdot \frac{2x}{3} = \frac{2x}{9}$  taga, qolgan shaftolilar soni -  $(\frac{2x}{3} - \frac{2x}{9}) = \frac{4x}{9}$  taga teng bo'ladi. Maqsud olgan shaftolilar soni -  $\frac{1}{3} \cdot \frac{4x}{9} = \frac{4x}{27}$  taga, ya'ni Maqsud 4 dona shaftoli olgan bo'lsa, bundan quyidagi  $4x:27=4$  tenglamaga ega bo'lamiz.  $4x:27=4$ ,  $4x=4 \cdot 27$ ,  $4x=108$ ,  $x=108:4$ ,  $x=27$ .

**Javob.** Ona bolalari uchun laganda 27 dona shaftoli qoldirgan ekan.

**10-masala.** Yashnar dastur yaratdi va u o'z dasturida “\*” belgini ixtiyoriy  $a$  va  $b$  sonlar uchun  $a*b=3a-b$  bo'ladigan qilib kiritdi. Quyidagi tenglamani Bobur tuzgan dasturda yeching:

$$2*(0*(2*(0*(x*2024))))=13$$



**Yechilishi.** Berilgan tenglamani yechishda Bobir tuzgan dasturdan foydalanamiz:

1).  $x \cdot 2024 = 3x - 2024$ , 2).  $0 \cdot (3x - 2024) = 0 - 3x + 2024 = 2024 - 3x$

3).  $2 \cdot (2024 - 3x) = 6 - 2024 + 3x = 3x - 2018$ , 4).  $0 \cdot (3x - 2018) = 0 - 3x + 2018 = 2018 - 3x$

5).  $2 \cdot (2018 - 3x) = 6 - 2018 + 3x = 3x - 2012$

$2 \cdot (0 \cdot (2 \cdot (0 \cdot (x \cdot 2024)))) = 13$ ,  $3x - 2012 = 13$ ,  $3x = 13 + 2012$ ,  $3x = 2025$ ,  $x = 2025 : 3$ ,  
 $x = 675$ .

**Javob.** Bizga berilgan tenglamaning yechimi 675 ga teng ekan.

**11-masala.**  $1 \& 2 = 5$ ,  $2 \& 3 = 13$ ,  $3 \& 4 = 25$ ,  $4 \& 5 = 41$  bo'lsa, shu qonuniyat asosida  $5 \& 6$  ifodaning qiymatini toping.

**Yechilishi.**  $1^2 + 2^2 = 1 + 4 = 5$ ,  $2^2 + 3^2 = 4 + 9 = 13$ ,  $3^2 + 4^2 = 9 + 16 = 25$ ,  $4^2 + 5^2 = 16 + 25 = 41$ ,  
 $5^2 + 6^2 = 25 + 36 = 61$ .

**Javob.**  $5 \& 6 = 61$ .

Xulosa qilib aytganda o'quvchilarda masalalarni yechishga qiziqishni shakllantirish ularda matematikaga va uni o'rganishga qiziqishni shakllantirishning juda muhim vositasi va shu bilan birga o'quvchilarni matematikadan ijodiy o'quv faoliyatiga jalb qilishning samarali vositasi ham bo'ladi. Bunday ishlarni faqat darsdan tashqari vaqtda emas, balki o'quvchilarni dastur materialini bevosita o'rganishlari davomida ham o'rganish imkoniyati bor va bunga zaruriyat mavjuddir. Buning uchun matematikani o'qitish jarayonida matematika darsliklarida joylashtirilgan masalalardan oson loyihalanadigan ma'lum masalalarni izchil qo'shib borishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 30- sentyabrdagi “Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4467-son qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488b
4. L. O'rinboyeva [va boshq.]. Matematika. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 160 b
5. L. O'rinboyeva [va boshq.]. Matematika. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 192 b.
6. Ergashev J. “Matematikani o'qitishda interaktiv yondashuv”. T.: “Fan va texnologiyalar” – 2016.

